ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VOYAGA YETMAGANLARGA NISBATAN JAZO TAYINLASHNING HUQUQIY ASOSLARI VA INSONPARVARLIK TAMOYILLARI

Anorboyev Murodjon Raxmanqul o`g`li
Tashkent International University
"Huquqiy fanlar kafedrasi" dotsenti vazifasini bajaruvchisi
yu.f.f.d., (PhD)
E-mail: m0116anomura@mail.ru

Nig'matjonova O'g'iloy Lutfullo qizi
Tashkent International University
Yurisprudensiya fakulteti 2 - bosqich talabasi
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20364206

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan jazo tayinlashning konseptual asoslari va insonparvarlik tamoyillarining amaliy tatbiqi tahlil etilgan. Tadqiqotda voyaga yetmagan shaxslarning psixofiziologik va ijtimoiy xususiyatlarini inobatga olgan holda jazo choralarini differensiyalash masalalari ilmiy nuqtai nazardan o'rganiladi. Jinoyat qonunchiligida voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llanishi mumkin bo'lgan jazo turlari ham keng yoritiladi. Xorijiy davlatlar tajribasi bilan qisqacha tahlil qilinib, voyaga yetmaganlarga nisbatan jazo tizimini liberallashtirish va insonparvarlik yondashuvini kuchaytirishga doir xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: voyaga yetmagan shaxslar, jazo tayinlash, insonparvarlik tamoyili, psixofiziologik, differensiyalash, liberallashtirish, jarima, axloq tuzatish ishlari, ozodlikdan mahrum qilish

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются концептуальные основы назначения наказания несовершеннолетним в законодательстве Республики Узбекистан, а также практическая реализация принципа гуманизма. В исследовании с научной точки зрения рассматриваются вопросы дифференциации мер наказания с учетом психофизиологических и социальных особенностей несовершеннолетних. Также широко освещаются виды наказаний, которые могут применяться к несовершеннолетним в уголоаном законодательстве. На основе краткого анализа опыта зарубежных государств сформулированы выводы, направленные на либерализацию системы наказаний в отношении несовершеннолетних и усиление гуманистического подхода.

Ключевые слова: несовершеннолетние лица, назначение наказания, принцип гуманизма, психофизиологические особенности, дифференциация, либерализация, штраф, исправительные работы, лишение свободы.

ABSTRACT

This article analyzes the conceptual foundations of sentencing minors in the legislation of the Respublic of Uzbekistan and the practical implementation of the principle of humanism. The study examines, from a scientific perspective, the issues of differentiating punishment measures taking into account the psychophysiological and social characteristics of minors. The types of punishments that may be applied to minors in criminal legislation are also widely covered. Based on a brief analysis of the experience of foreign countries, conclusions are formulated aimed at liberalizing the system of punishments for minors and strengthening the humanitarian approach.

Keywords: minors, sentencing, principle of humanism, psychophysiological characteristics, differentiation, liberalization, fine, corrective labor, deprivation of liberty.

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan turli xil jinoyat va huquqbuzarliklar rivojlanayotgan jamiyatning muhim ijtimoiy-huquqiy muammolaridan biri hisoblanadi. Shu sababli

jinoyat qonunchiligida voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan jazo tayinlash masalasi alohida e'tiborni talab etadi.

Bunday holatlarda ularning yoshiga xos psixologik va ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olish jazo tayinlash jarayonida muhim ahamiyat ega. Shu nuqtai nazardan, insonparvarlik tamoyilining qo'llanilishi alohida dolzarblik kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi voyaga yetmaganlarga nisbatan jazo tayinlashning huquqiy asoslarini hamda insonparvarlik tamoyilining mazmuni va ahamiyatini tahlil qilishdan iboratdir.

Ushbu tadqiqotni amalga oshirish jarayonida bir qator ilmiy usullardan foydalanildi. Jumladan, normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, qiyosiy-huquqiy usul, umumlashtirish hamda mantiqiy tahlil usullari qo'llanildi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining XV-bobida voyaga yetmagan shaxslarning jinoiy javobgarligi hamda ularga nisbatan jazo tayinlash masalalari alohida tartibga solingan. Mazkur normalar voyaga yetmaganlarning yoshiga xos psixologik va ijtimoiy xususiyatlarini inobatga olish zarurligini nazarda tutadi. Shu bois sud tomonidan jazo tayinlash jarayonida nafaqat sodir etilgan jinoyatning og'irligi, balki voyaga yetmagan shaxsning shaxsiyati, uning rivojlanish darajasi hamda tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari ham hisobga olinadi.[1]

Jinoyat huquqi tizimida insonparvarlik prinsipi muhim fundamental tamoyillardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 7-moddasida mazkur prinsip mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, unga ko'ra jazo hamda boshqa huquqiy ta'sir choralarini qo'llash jarayonida shaxsning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko'zlamaydi. Jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan u axloqan tuzalishi va yangi jinoyat sodir etishining oldini olish uchun zarur hamda yetarli bo'ladigan jazo tayinlanishi yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilishi kerakligi ta'kidlanib o'tilgan. Ushbu tamoyil voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan jazo tayinlashda alohida o'rin tutadi, chunki ularning psixofiziologik rivojlanish darajasi, ijtimoiy muhit ta'siri hamda shaxs sifatida shakllanish jarayoni to'liq yakunlanmagan bo'ladi. Shu sababli jinoyat-huquqiy siyosatda voyaga yetmaganlarga nisbatan jazo choralarini qo'llashda insonparvarlik, differensiyalash hamda tarbiyaviy ta'sirga ustuvor ahamiyat berilishi nazarda tutiladi.

Amaldagi jinoyat qonunchiligiga muvofiq voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan bir qator jazo turlari qo'llanilishi mumkin. Jumladan, ularga nisbatan jarima, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari, ozodlikni cheklash hamda ozodlikdan mahrum qilish kabi jazo choralarini tayinlash nazarda tutilgan. Jarima voyaga yetmaganlarga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda tayinlanishi mumkin. Shuningdek, majburiy jamoat ishlari faqat mehnatga layoqatli voyaga yetmaganlarga nisbatan oltmish soatdan ikki yuz qirq saotgacha muddatga belgilanadi va ularning sog'lig'i hamda ta'lim jarayoniga zarar yetkazmasligi lozim. Axloq tuzatish ishlari esa bir oydan bir yilgacha muddatga tayinlanib, voyaga yetmaganning ish joyida yoki nazorat qiluvchi organlar belgilagan boshqa joyda o'taladi. Bundan tashqari, ozodlikni cheklash olti oydan ikki yilgacha muddatga tayinlanishi mumkin bo'lsa, ozodlikdan mahrum qilsih jazosi voyaga yetmaganlarga nisbatan odatda olti oydan o'n yilgacha muddatni tashkil etadi.

Shu bilan birga, sud amaliyotini yagona tarzda qo'llash maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlarida ham voyaga yetmaganlarga jazo tayinlashda alohida ehtiyotkorlik talab etilishi qayd etilgan. Xususan, sudlar jazo tayinlash jarayonida voyaga yetmagan shaxsning Yoshi, psixologik rivojlanish darajasi, oilaviy va ijtimoiy muhitini har tomonlama baholashi zarurligi ta'kidlanadi. Shuningdek, imkon qadar voyaga yetmagan shaxsni jamiyatdan ajratib qo'yish bilan bog'liq bo'lmagan jazo choralarini qo'llashga ustuvor ahamiyat berilishi lozimligi ko'rsatib o'tiladi.[2]

Xorijiy davlatlar tajribasida voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan jazo tayinlashda tarbiyaviy va reabilitatsion yondashuv ustuvor ahamiyatga ega. Xususan, Germaniyada voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi bilan bog'liq masalalar Jugendgerichtsgesetz asosida tartibga solinadi. Mazkur qonunga

[1] O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi 1194-yil 22-sentyabr

[2] O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining Voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida qarori. 2000-yil 15-sentyabr

ko'ra, voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan jazo tayinlashda asosiy maqsad ularni jazolash emas, balki tuzatish va jamiyatga qayta moslashtirish hisoblanadi. Shu sababli Germaniya sud amaliyotida voyaga yetmaganlarga nisbatan avvalo tarbiyaviy choralar, ijtimoiy nazorat hamda maxsus tarbiya dasturlarini qo'llashga ustuvor ahamiyat beriladi. Ozodlikdan mahrum qilish jazosi esa faqat og'ir jinoyatlar sodir etilgan hollarda qo'llanadigan eng so'nggi chora sifatida qaraladi. Bu jihatda Germaniya tajribasi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan insonparvarlik tamoyiliga ma'lum darajada o'xshash bo'lib, unda ham voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan jazo tayinlashda ularning yoshi, psixologik rivojlanish darajasi hamda tarbiya sharoitini hisobga olish muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, Germaniya tizimida tarbiyaviy choralar va ijtimoiy reabilitatsiya dasturlari kengroq qo'llanilishi voyaga yetmaganlar bilan ishlashda yanada profilaktik va ijtimoiy yo'naltirilgan yondashuvni namoyon etadi.[3]

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan jazo tayinlash jarayonida insonparvarlik tamoyilini ta'minlash jinoyat-huquqiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur toifadagi shaxslarning psixologik va ijtimoiy rivojlanish jarayoni hali to'liq yakunlanmaganligi sababli ularga nisbatan qo'llaniladigan jazo choralarini belgilashda differensiyalashgan yondashuvni qo'llash zarur hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan sudlar tomonidan jazo tayinlashda voyaga yetmagan shaxsning yoshi, individual xususiyatlari, tarbiya sharoiti hamda sodir etilgan jinoyatning sabab va sharoitlarini kompleks baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv nafaqat jinoyat sodir etgan voyaga yetmagan shaxsni tuzatish va qayta ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiladi, balki kelgusida huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan profilaktik ahamiyatga ham ega.

Xulosa qilib aytganda voyaga yetmagan shaxslar javobgarligi – bu huquqiy tizimning eng yuqori ehtiyotkorlik va mas'uliyat talab qiladigan bosqichdir. Buning asosiy sababi shundaki, bu yoshdagi shaxslarning psixofiziologik rivojlanishi hali to'liq yakunlanmagan, shaxsiyati shakllanayotgan va ular tarbiyaviy ta'sirga kattalarga nisbatan ancha sezgir bo'ladi. Shu sababli, ularga nisbatan qo'llaniladigan har qanday chorada insonparvarlik prinsipi va adolat ustuvorligi tamoyillari bir vaqtning o'zida va to'laqonli amal qilishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori https://lex.uz/uz/docs/-1449720
3. Jugendgerichtsgesetz (Youth Courts Act) – Germany https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_jgg/englisch_jgg.html

[3] Jugendgerichtsgesetz (Youth Courts Act) - Germany